

Turonbankning ishlab chiqarish XIII seminari

Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti B-bino 109-auditoriyasida "Iqtisodiyot" fakultetida tahsil olayotgan "TURONBANK" ATB stependiat talabalari va professor o'qituvchilari uchun 25.01.2025 yilda "TURONBANK" ATB Chakana biznes departamenti direktori Talipov Alisher bilan "**Turonbank ATB tomonidan taklif etilayotgan Chakana xizmatlar turlari hamda sotuv amaliyotlarini kuchaytirish**" mavzusida 2024-2025 o'quv yili uchun rejalashtirilgan XIII-seminar tashkil qilindi.



Bugungi kunda yuzaga kelayotgan sog'lom raqobat muhitini shakllantirish hamda mijozlar uchun qulayliklarni yanada kengaytirish maqsadida banklarda bir qator yangi loyihalar va xizmat turlari yo'lga qo'yilgan. Filiallar tasarrufida tashkil etilgan chakana cassalar orqali aholiga barcha turdagi to'lovlarni qabul qilish, omonatlarga pul mablag'larini jalg etish, SWIFT operatsiyalari, sifatli xalqaro pul o'tkazmalari, valyuta ayriboshlash amaliyotlari, plastik karta xizmatlari kabi ko'plab mahsulot va xizmatlar tez hamda sifatli taqdim etilayotganligi boyicha malumotlar berdi. Maruza yuzasidan talaba yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar oldilar.

"Iqtisodiyot" fakulteti dekani o'rinnbosari

U.Xoliyorov ma'lumoti

Universitet matbuot xizmati